

"Nurli maskan" maktab-internati o'quvchilari uchun "Ochiq eshiklar" kuni o'tkazildi.



Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganligining 33-yilligi munosabati bilan "Yangi O'zbekiston armiyasi-mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri" shiori ostida boshlangan "Vatanparvarlik" oyligi doirasida o'tkazilgan tadbir davomida harbiy orkestr jamoasining Vatanni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlari, faxriy qorovul hamda qo'l jangi ustalarining ko'rgazmali chiqishlari o'quvchilarga o'zgacha taassurot ulashdi.

Shuningdek, harbiy hayoti bilan yaqindan tanishgan o'quvchilarga tadbir yakunida harbiy qism qo'mondonligining esdalik sovg'alari topshirildi.